



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

3/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



3/2024



E-ISSN 2181-1466



ISSN 2181-6875

9 772 181 146 004

9 772 181 687 004

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2024, № 3, mart

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinnbosari: Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor
O'rareva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor
To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor
Eshtayev Alisher Abdug'anlyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyorova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbanovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

| | | |
|---|---|------------|
| Abdazova A.R. | The features of the use of english environmental terms in the media | 3 |
| Batirkhanova M.O. | Somatik frazeologik birliklar tahlili va ularning o'rganilish tarixi | 9 |
| Sobirova D.R. | Reklama matnlarining gender xususiyatlari (tibbiyotga oid reklamalar misolida) | 15 |
| Sadullayeva G.I. | Enhancing listening comprehension: strategies, challenges and a comprehensive methodology for language learners | 17 |
| Asadov T.H., Bakirova N.H. | Ayrim etnofrazemalarning lingvokulturologik tadqiqi (o'zbek, rus, turk tillari misolida) | 26 |
| Eshquvvatova G.N., Urinbayeva D.B. | Stylistic features of proverbs in internet texts | 31 |
| Hojlyeva M.G'. | Integrating language and content: strategies and challenges in content-based language instruction | 36 |
| Khabibova M.N. | Biografik asarlardagi epistolyar matnlarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlari | 41 |
| Mahmudova D.M. | Building a comprehensive bilingual synchronous corpus: principles and practices | 45 |
| Narzullayeva D.B. | Qur'oni Karim leksik konfiguratsiyalari: Ka'ba toponimmi yoxud teonim? | 50 |
| Sadikov E.T. | Iltifot va inkor mazmunidagi nutq aktlarining tasviriy-ifodaviy atributlari | 55 |
| Pardayev S.Sh. | Globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot tizimidagi madaniy o'ziga xoslik | 60 |
| Mahmudova D.M. | Significance and development of linguistic corpora in Uzbekistan | 66 |
| Safoyeva S.N. | Pragmatic marker: "so" and its role in modern oral discourse | 70 |
| Turg'unboyeva D.A. | Comparative pragmatics: politeness strategies in uzbek and english languages | 75 |
| Xolova M.B. | Tushuncha madaniy kodning shakllangan birligi sifatida | 81 |
| Xusenova M.O'. | Termin va terminologiya xususida | 85 |
| Ziyayeva D.A. | Paradigmatic analysis of speech verbs | 89 |
| Zokirova N.S. | The concept of "linguistic picture of the world" in translation | 94 |
| Давлатова М.Х. | Встречение английских глаголов-предикатов в функционально-семантическом поле | 98 |
| Махмудова Ю.А. | Лингвокультурные особенности в контексте социолингвистического анализа произведения «Шайтанат» | 104 |
| Gudzina V.A., Rustamova N.Sh. | The phraseological specificity of V.Shukshin's idiosyncrasy in fiction: an analysis of interconnections and functional features | 109 |
| Subxonqulov U.T., Adizova F.M. | So'zlarni lingvistik tahlil qilish jarayoni uchun ayrim algoritmlarining qiyosiy tahlili | 114 |
| Heydarova N.A. | "Past", "present" and "future" as temporal adjectives | 119 |
| Norova M.F. | Phraseological dialectisms in english literary works | 123 |
| Zeynalova K. | The use of some national-cultural realies in the english language, their etymology and ways of their borrowings | 128 |
| Karimova R. | Pragmatic and conceptual aspects of idioms in the discourse of the british and american press | 134 |
| Yokubova Sh.Y. | Fe'lli birikmalarning nutqiy voqelanishi | 138 |

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

| | | |
|--|-------------------|------------|
| Hayitov Sh.A., Qudratova K.H. | So'z va soz sehri | 142 |
|--|-------------------|------------|

AYRIM ETNOFRAZEMALAR LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI (o'zbek, rus, turk tillari misolida)

Asadov To'lqin Hamroyevich,

Buxoro davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.n.
t.h.asadov@buxdu.uz

Bakirova Nigina Elnurovna,

Buxoro davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi 2-bosqich magistri
n.e.bakirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada frazeologik birliklar, ularning qiyosiy tahlili, ayrim frzeologik
birliklarning etimologiyasi, semantik-funksional vazifalari tadqiq qilingan. Shuningdek, etnofrazeologik
birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari rus va turk tillari misollari bilan qiyoslangan holda tahlil
etilgan, lingvokulturologiyaning nazariy jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan, ma'lum bir xulosalar
chiqarilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, frazeologiya, etnofrazema, milliy urf-odatlar, madaniyat tarixi,
o'zbek madaniyati, til tarixi, etnos.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ЭТНОФРАЗ (на примере узбекского, русского, турецкого языков)

Аннотация. В данной статье изучаются фразеологизмы, их сопоставительный анализ,
этимология некоторых фразеологизмов, семантико-функциональные функции. Также были
проанализированы лингвокультурные характеристики этнофразеологизмов в сравнении с примерами
русского и турецкого языков, даны сведения о теоретических аспектах лингвокультурологии и
сделаны определенные выводы.

Ключевые слова: лингвокультурология, фразеология, этнофраза, национальные традиции,
история культуры, узбекская культура, история языка, этнос.

LINGUOCULTUROLOGICAL STUDY OF SOME ETHNOPHRASES (in the example of Uzbek, Russian, Turkish languages)

Abstract. In this article, phraseological units, their comparative analysis, etymology of some
phraseological units, semantic-functional functions are studied. Also, the linguistic and cultural
characteristics of ethno-phraseological units were analyzed by comparison with the examples of Russian and
Turkish languages, information was given about the theoretical aspects of linguistic and cultural studies, and
certain conclusions were drawn.

Keywords: linguoculturology, phraseology, ethnophrase, national traditions, cultural history, Uzbek
culture, language history, ethnosc.

Kirish. Lingvokulturologiya yo'naliшining shakllanishi haqida so'z borar ekan, tadqiqotchilar bu
nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar[3]. Tilshunoslikda bu sohaning
rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir,
B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi
ta'kidlanadi[5]

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunoslidagi yetakchi yo'naliшlardan biriga
aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rjanuvchi fan bo'lib, u o'zaro
aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtida lingvokulturologiya, xususan, rus tilshunoslida eng rivojlangan yo'naliшlardan biri
bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida
eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi[4]. Mazkur o'quv qo'llanmada

LINGUISTICS

lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muyyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan.

Asosiy qism. "Til va madaniyat" masalasi ko'p qirrali bo'lib, unga tarixchi, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunos turlicha yondashadi. Til va madaniyat aloqadorligi, madaniy belgilar, mental xususiyatlarning tilda ifodalanish darajasini *lingvokulturologiya* o'rganadi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko'rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko'pincha miflar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektidagi ishlar. Bunda asosan rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingen.

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning nazariy masalalari borasida ham ishlar amalga oshirildi[3;7;8]. Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmanning mohiyati va bu boradagi muammolar churur va asosli yoritib berildi. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (*madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati*)" demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti tamoman boshqadir"[3,10].

Shuningdek, tilshunos olima D.Xudoyberganovaning "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiyasida o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari ham ma'lum ma'noda o'rganilgan[8]. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o'rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor berildi.

Lingvokulturologiyaning tadqiqot yo'nalishlari sifatida 1) sinxron lingvokulturologiya; 2) diaxron lingvokulturologiya; 3) qiyosiy lingvokulturologiya; 4) chog'ishtirma lingvokulturologiya kabilar ajratiladi [7]. Lingvokulturologiyaning mazkur tadqiqot yo'nalishlarining har biri o'z obyekti va predmetiga, maqsad, vazifalariga ega.

Har bir xalq, millatning o'z milliy an'analari, hayot tarzi bilan bog'liq qadriyat va urf-odatlari mavjud bo'lib, ularni asrab-avaylash, kezi kelganda uni targ'ib etish borasidagi ishlarga ahamiyat qaratilmog'i lozim. Xususan, tilga antroposentrik paragma nuqtayi nazardan yondashish va bu paragma sohalaridan biri bo'lgan lingvokulturologiya va uning tadqiqiga bo'lgan qiziqish ko'pgina hodisalarni til va madaniyat uyg'unligida qayta ko'rib chiqish imkoniyatlarini ham yaratdi. Jumladan, barqaror birliklar va ularning tub o'zagini tashkil etadigan frazemalarni yangi bosqichga olib chiqdi, desak yanglishmaymiz.

Har qanday madaniy belgilarni shu xalq tili orqali namoyon bo'ladi. Xususan, iboralarda lingvomadaniy belgilarni ifodasi boshqa hodisalarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Buning sababi shundaki, birinchidan, ibora kamida ikki so'zdan iborat bo'lib, bunday birlik, ya'ni so'z birikmasi yoki gap holida jumla so'zga nisbatan muayyan bir holatni, tasvirni yaqqolroq ko'rsata oladi. Ikkinchidan, ibora, odatda, xalq turmush tarzi bilan o'ta uyg'un, ya'ni yonma-yon hayot kechiradi. Xalq turmushining tarkibiy qismi, qolaversa, nisbatan qadimiy bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, frazeologik birliklar har bir xalq lingvomadaniy birligining tub obyektini tashkil qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan frazeologik birliklar *etnofrazemalar* nomi ostida ham o'rganiladi. Negaki mazkur birliklarda ma'lum bir elatning etnosiga tegishli lisoniy birliklarni mavjud bo'ladi. Bu lisoniy birliklar shu xalq turmush tarzi, urf-odati, qadriyatlarining tarkibiy qismi sanaladi. Til tafakkur mahsuli ekan, albatta, shu til egalari yaratiq mahsuli bo'lgan maqol, matal, ibora, naql, hikmatlarida o'z mentaliteti, urf-odatlardan kelib chiqib, o'z qadriyatining vogeligi bo'lgan "so'z" dan foydalanadi.

O'zbek tili lug'at qatlami frazeologik birliklarga boy[6]. Milliy frazeologizmlar ma'lum bir millatning madaniyati, urf-odatlari, o'ziga xos udumlari kabilarni yorituvchi va xalqlar hayoti, dunyoqarash va turmush tarzini, etik va estetik normalarini ifodalaydi. Milliy frazeologizmlar xalqning ijtimoiy-siyosiy va maishiy

LINGUISTICS

hayotini, xarakter-xislatlarini..., flora, faunasini, millatga xos urf-odat hamda marosimlarini ifoda etadi[2,25]. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlariga bag'ishlangan Z.Jumayevaning "Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi" nomli ishida yuqoridagi fikrlarimizga hamohang tarzda shunday fikr keltiriladi: "Ishga cho'loq, oshga qo'nog" iborasining rus tilidagi muqobili sifatida "A где щи тут нас ищи" frazemasi keltiriladi. Frazeologiyadagi oziq-ovqat komponenti madaniy kodni belgilash tamoyiliga ko'ra bir xil, teng tushunchani hosil qiladi. "Osh" bu yerda nafaqat yemak ma'nosida, balki milliy taomimiz sifatida ham belgilangan zaruriy mazmunni yoritib berish uchun xizmat qiladi. Shi (щи) ham ruslarning qadimiyligi milliy taomidir"[2,15]. Albatta, har bir xalqqa xos etnofrazemalar mavjud bo'lib, ular shu xalq etnosini o'zida namoyon eta oladi. Shu nuqtayi nazardan etnofrazemalarning til tarixi, milliy tilni o'rganishimizdagi ahamiyati yuqori. O'zbek xalqi uchun *do'ppisi yarimta, kovushini to'g'rilib qo'yamoq, oshga pashsha tushmoq, mahsi kiymoq, ro'mol o'ramoq, to'nini teskari kiymoq, moshxo'rda qatiq bo'lmoq, choponi yelkasida, ataladan suyak chiqmoq, atlas ko'yakka bo'z yamoq, holva degan bilan og'iz chuchimaydi* kabi etnofrazemalarda *do'ppi, kovush, osh, mahsi, ro'mol, to'n, moshxo'rda, chopon, atala/ adres, holva* va b.lar o'zbek millatiga xos tarixiy so'zlar – millatimizning etnosiga xos lisoniy birliklardir.

O'zbek xalqi uchun madaniy kodlardan biri "do'ppi" bo'lsa, rus tilida bu kod, odatda, "shapka" so'zi orqali ifoda etiladi. Masalan, o'zbek va rus tili iboralari qiyoslanganda[1] o'zbekcha *do'ppi so'zi qo'llangan frazeologik birliklarning rus tilidagi muqobili sifatida quyidagilar keltirilganligiga guvoh bo'lamiciz: bosh yorilsa, do'ppi ostida, qo'l sinsa, yeng ichida – не выноси сор из избы, do'ppisini ol desa, kallasini oladi – перенут палку, do'ppini olib qo'yib o'yamoq – шевелить мозгами, do'ppisi yarimta – дела идут, контора пишет. Albatta, mazkur misollar har ikkala tildagi integral ma'nolari bilangina umumiylilik hosil qiladi. Ammo "bosh yorilsa, do'ppi ostida, qo'l sinsa, yeng ichida" etnofrazemasini rus tiliga aynan tarjima qilsak, "если расколется голова, то под шапкой, если сломается рука, то под рукавом" tarzida bo'ladi[1,27]. Bilamizki, frazeologik birliklarni to'g'ridan to'g'ri bir tildan ikkinchi tilga o'girish o'zini oqlamaydi.*

O'zbek xalqi orasida kiyim-kechak bilan bog'liq do'ppisini osmonga otmoq, oyog'ini bir etikka tiqib olmoq, do'ppisi yarimta, do'ppi tor kelmoq, bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan, paytavasiga qurt tushmoq kabilar keng qo'llanadi. Bular ma'lum bir vaziyatda qo'llanishi bilan alohidilik kasb etidi. Masalan, do'ppisini osmonga otmoq iborasi inson (o'zbek xalqi)ning ruhiy holati bilan bog'liq. Bu ko'pgina xalqlarga xos xususiyat aslida. Sh.Shomaqsudov ta'kidlaganidek, har bir xalqda o'z shodligini bildirish maqsadida bosh kiyimini osmonga irg'itish odati bor[11,53]. Aniqrog'i, inson to'satdan xushxabar eshitsa, shu xursandchiligi ifodasi uchun do'ppisini boshidan olib, osmonga irg'itadi. Bu oniy bir jarayon bo'lib, kutilmaganda sodir bo'ladi. Bunda insondan katta kuch talab etilmaydi. Aytmoqchimizki, favqulodda xursandchilikda kishi o'z hayajonini do'ppisi (umuman bosh kiyimi)ni irg'itish bilan bosgandek bo'ladi.

Kovushi ko'chada qolmoq iborasi ham xalq turmushi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu ibora "birovlar e'tibori, nazaridan chetda qolgan holat" ma'no ifodasiga ega. O'tmishda kovush kishi hayoti uchun muhim o'ringa ega bo'lgan, uning ko'chada qolishi noodatiy hol hisoblangan. Mana shu haqiqat mazkur iboraning yuzaga kelishiga mantiqiy asos bo'lgan bo'lsa, ajab emas.

Do'ppisi yarimta etnofrazemasining kelib chiqishi haqida shunday ma'lumot keltiriladi: "Ilgari vaqtarda haddan tashqari xursand bo'lib yurgan chapani odam do'ppisini yarim qaytoqi qilib, boshiga qo'ndirib yurardi. Bu bilan o'zining vaqtি chog'ligini bildirardi. Do'ppini yarimta qilib yuradiganlar uy-ro'zg'or, bola-chaqa tashvishi tushmagan, bo'ydoq, o'spirin yigitlar o'rtasida ko'p bo'lardi"[11,53]. Yoki do'ppini yechib, irimigagina qoqib qayta boshga qo'ndirish holati ham mavjud. Xuddi shunga o'xshash holat boshqa xalqlarda ham kuzatilib qoladi. Masalan, shapka asosiy bosh kiyim sanalgan xalqlarda (masalan, rus millatida) quvonchli onning ifodasi sifatida qo'l bilan shapkani boshning old qismi – peshonaga qarab siljitim holati uchraydi.

Umuman, frazeologik birliklarni tillararo o'zaro qiyoslaganda muayyan bir iboraning milliylik ko'rsatkichi yorqinroq anglashiladi. Qolaversa, mazkur etnofrazemalarda qo'llangan hamda milliylik ifodasini yaqqol ifoda etuvchi lisoniy birliklar (realiyalar) shu etnofrazemaning stimul so'zi (mantiqiy urg'uga ega so'z) vazifasida keladi. Bu kabi (to'n, chopon, kovush, atlas, adres, osh, palov, atala, belbog', mahsi, non, dasturxon va h.k.) leksemalar mentalitetimizning o'ziga xos lingvokulturologik jihatlarini o'zida umumlashtirgan bo'ladi. Masalan, *yeng uchida, yeng shimirib* kabi etnofrazemalarning yuzaga kelishi ham muayyan bir madaniy belgilari – urf-odatlarimiz bilan bog'liq. Ularning kelib chiqishi turmush tarzimiz bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni momolarimiz miliy kiyim sifatida uzun, yengli ko'yak ustidan kamzul, mursaklar kiyishgan. *Mursak* yengli ko'yak ustidan kiyiladigan ustki, yengsiz milliy kiyim bo'lgan[10,646]. O'zbek ayollari o'tmishda yengilroq ish bilan mashg'ul bo'linda yenglarini shimarmasdan, ya'ni qo'l uchida bajarishgan, bunda yeng shimarishga zarurat bo'laman. Ammo mas'uliyatlari, e'tibortalab ishga kirishganlarida, albatta,

yenglarini tirsaklarigacha shimarib olishgan. Provardida “qo‘l uchida”, “yeng shimarib” kabi etnofrazemalarning yuzaga kelishiga shart-sharoit yuzaga kelgan.

Xalqimiz orasida *non sindirmoq* etnofrazemasi ham aslida real hayot voqeligi bilan bog‘liq bo‘lib, bora-bora o‘z ma’nosidan qo‘shimcha ma’no o‘sib chiqishiga sharoit yaralgan. Masalan, o‘zbek oilasida voyaga yetgan qizni so‘rab kelishganda rozilik belgisi sifatida bir juft non birga sindirilib, dasturxonga tortiladi. Bo‘yi yetgan qizni so‘rab kelgan sovchilar oldiga shirinlik va non qo‘yilmasa yoki qo‘yilsa-yu, non sindirilmasa, bu sovchilarga norozilik belgisi (ramzi) hisoblanadi.

Mahsi kiymoq etnofrazemasi o‘zbek xalqi, umuman, Markaziy Osiyo ayollari uchun turmushga chiqmoq ma’no ifodasiga teng keladi. Bu so‘z etimologiyasiga ko‘ra, arabcha *mahs* so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, “bo‘yamoq, surtmoq, yog‘lamoq” ma’nosini ifodalaydi. Oyoq kiyimining bunday nomlanishi unga “mahs tortish” mumkin bo‘lganidandir. *Mahs* so‘ziga nisbat qo‘shimchasi -i ning qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan mahsi so‘zi arab tilining o‘zida mavjud emas[9,98]. Turmushga chiqqan qizning kuyov xonadoniga milliy kiyimiz, ya‘ni mahsida kirib borishi ham “mahsi kiymoq” etnofrazemasining paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan.

Ma’lumki, har bir xalqning frazeologik birliklari shu xalq tafakkuri, dunyoqarashi, bilim darajasi bilan ham belgilanadi. Muayyan bir xalqning frazeologik birliklarini o‘rganish bilan shu xalq tarixi, etnolingvistikasi, madaniy-ma’rifiy salohiyatiga ham baho berib bo‘ladi. Ko‘pincha bir oilaga mansub, tarixiy ildizlari bir bo‘lgan, qondosh tillar lug‘at qatlamida frazeologik birliklarning shaklan va mazmunan o‘zaro kesishishi kuzatiladi, bu isbot talab etmaydi. Masalan, tarixiy ildizlari bir bo‘lgan o‘zbek va turk tillarining frazeologik birliklari qiyoslanganda quyidagicha holatga duch kelamiz:

a) har ikkala til lug‘at qatlamida birdek mansub frazeologik birliklar: *ko‘zi orqasiga qolmoq, qalbiga kirmoq, qalbiga yo‘l topmoq, tillarga tushmoq, ko‘z bo‘yamoq, bir qulog‘idan kirib boshqasidan chiqib ketmoq, og‘zidan (tilidan) bol tommoq, yuzsiz bo‘lmoq, ko‘z yogurtimoq, ko‘zi hech narsani ko‘rmaslik* va h.k.larni sanash mumkin (bular son jihatdan ko‘p).

b) shaklan va mazmunan qisman o‘zgargan frazeologik birliklar: *o‘n barmog‘i o‘n hunar (o‘zbekcha) – o‘n barmog‘i o‘n bilim (turkcha), o‘tirgan shoxni kesmoq (o‘zb.) – mingan shoxni kesmoq (turk.), yog‘ tushsa yalagudek (o‘zb.) – bol tomsa yalagudek (turk.), og‘zini moylamoq (o‘zb.) – pul yedirmoq (turk.), ko‘zi oldida (o‘zb.) – burnining to‘g‘risida (turk.), orasidan qora mushuk o‘tgan (o‘zb.) – oralariga qora mushuk kirgan (turk.), noni qattiq (o‘zb.) – noni toshdan chiqqan (turk.), orasidan qil o‘tmaydi (o‘zb.) – orasidan suv sizmaydi (turk.) v.k.*

v) o‘zbek tili lug‘at qatlamida uchramaydigan turk frazeologik birliklari: *dunyo uyiga kirmoq (turmush qurmoq), echki qochirmoq (ruhi buzilmoq, aqli qochmoq), boshi portlamoq (bir masalani ko‘p o‘ylamoq), daraxt bo‘lmoq (ko‘p kutib charchamoq), o‘zini dev oynasida ko‘rmoq (o‘zini kuchli deb hisoblamoq), to‘rvaga kaklik (o‘ta oson kechgan ish), og‘zingni to‘pla (suhbatga diqqatli bo‘lmoq), dori yutmoq (qo‘rqinch bilan yashamoq), kallani dazmollamoq (qattiq aldamoq, lof urmoq) va h.k.*

Muayyan bir frazeologik birlikning hosil bo‘lishi shu xalq istiqomat qiluvchi muhit, shu joy flora, faunasiga ham bog‘liq. Buni turk tiliga xos non arslon og‘zida, xitoy tiliga xos non ajdarho og‘zida, o‘zbek tilidagi non bo‘rining og‘zida shaklidagi etnofrazeologik birliklar bilan ham dalillash mumkin.

Xullas, etnofrazemalar har bir xalqning tarixi, maishiy hayoti, milliy-madaniy jihatlarini aks ettiruvchi majoziy ma’nodagi muhim lisoniy birliklar sanaladi. Ularning aksariyati qabilachilik davridanoq shakllanib ulgurgan. Ularda maqollarda bo‘lganidek, umumlashgan xulosalar ifoda etiladi. Biroq frazeologik birliklarda milliylik, umumxalq ahamiyatiga daxldorlik ko‘proq kuzatiladi. Ular xalqimizning muhim ma’naviy boyligidir.

ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов М. Қисқача ўзбекча-русча фразеологик лугат. –Т.:Ўқитувчи, 1980.
2. Жумаева З. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи. Фил. фан. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Жиззах, 2021.
3. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. 5-сон, 3-16-б.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. 5.Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания/ Критика и семиотика. Вып. 7. 2004. – С. 238-243.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик лугати.–Т.:Фан, 1964.
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Т., 2018.
7. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография.–Т. Фан, 2013.

LINGUISTICS

8. Xo'janazarova U. Badiiy matnda etnomadaniyatni ifodalovchi kiyim-kechak nomlari qo'llanishi // Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi. – T., 2023, aprel soni. 97-101-b.
9. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. – Т.: Ўзб.миллӣ энҷ.си, 2006-2008.
10. Шомақсадов Ш., Долимов С. Кенг уйнинг келинчаги. – Т.: Ўзб. давлат бадиий адабиёт нашириёти, 1961.
11. Amonova z. Nevâî icadinda kita türiünün öpem /Ilim ve marifet nurlari. – C. 306.
12. Khojieva, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. *TJE-Tematics journal of Education ISSN*, 2249-9822.
13. Yokubova, S. Y. (2023). O'ZBEKONA GAP QURILISHIDA FE'LNING TUTGAN O'RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(11), 421–426. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4003>
14. Yokubova, S. (2023). POETIK NUTQDA METAFORIK BIRIKMALAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 35(35).
15. Shokirovna, S. M. (2021). The attitude of the language of uzbek films at the period of independence to the lexical norms. *JournalNX*, 7(07), 190-196.
16. Shirinova, M. S. (2020). THE CONCEPT OF FILM LANGUAGE AND ITS STUDIEDNESS IN LINGUISTIC ASPECT. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 157-159).